

**MAKTABGACHA TA`LIM O`RGANUVCHILARIGA XORIJIY
(INGLIZ TILINI) O`QITISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING
MALAKASINI OSHIRISH**

Asadova Shaxina Tolib qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

shaxinatalibovna99@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini bilish zamonaviy jamiyat uchun muhim talabga aylanib bormoqda. Shu sababli, ta`lim tizimining boshlang`ich bosqichi bo`lmish maktabgacha ta`limda ham ingliz tilini o`qitish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning lingvistik va kommunikativ ko`nikmalarini shakllantirish uchun maktabgacha ta`lim muassasalaridagi pedagoglarning malakasi yuqori bo`lishi lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim pedagoglari uchun malaka oshirishning ahamiyati, samarali metodlari va zamonaviy yondashuvlar haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Maktabgacha ta`lim, pedagogik malakasi, lingvistika, kommunikativ, ko`nikmalarni shakllantirish, samarali metodlar, zamonaviy jamiyat.

Annotation. In today's times of globalization, knowledge of foreign languages, in particular English, is becoming an important requirement for modern society. For this reason, the teaching of English in pre-school education, as the primary stage of the education system, is of particular importance. In order to develop linguistic and communication skills of children, teachers in preschool education institutions should be highly qualified. This article discusses the relevance, effective methods and modern approaches of professional development for preschool teachers.

Keywords: Preschool education, pedagogical qualifications, linguistics, communication, skills development, effective methods, modern society.

Аннотация. В сегодняшние времена глобализации знание иностранных языков, в частности английского, становится важным требованием для современного общества. По этой причине преподавание английского языка в дошкольном образовании, как начальной ступени системы образования, имеет особое значение. Для развития языковых и коммуникативных навыков детей педагоги в дошкольных образовательных учреждениях должны обладать высокой квалификацией. В данной статье рассматриваются актуальность, эффективные методы и современные подходы к профессиональному развитию педагогов дошкольного образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование, педагогическая квалификация, лингвистика, коммуникация, развитие навыков, эффективные методики, современное общество.

KIRISH.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, shuningdek, bolalar bog'chasi, boshlang'ich mактаб yoki o'yin mактаби sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang'ich mактабда majburiy ta'limni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta'limni taklif qiladigan ta'lim muassasasi. U davlat yoki xususiy bo'lishi mumkin va davlat mablag'lari hisobidan subsidiyalanishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimida oliv ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyoj esa pedagogika universitetlarida maktabgacha ta'lim yo'naliшhiga qabul kvotalarining oshirilishi va nomutaxassis kadrlarni qayta tayyorlovdan o'tkazish evaziga to'ldirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi. Ushbu dasturlar bolalarga o'qish va yozishni turli o'yinlar orqali o'rgatish, ularning zerikmasligi, aksincha, bog'chaga xursand bo'lib borishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'r ganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Komissiya tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilik undagi bo'shliqlar, korrupsiya va boshqa huquqbuзarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtayi nazaridan tahlil etildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini samarali ro'yobga chiqarishgato'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'r ganish amalga oshirildi.

ASOSIY QISM:

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, mактабда o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-yetti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar. Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.¹

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalg etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

¹ cyberleninka.ru

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish tubdan isloh qilishga yo'naltirilgan qarordir. Bu qaror natijasi Maktabgacha ta'lim sohasida keskin o`zgarishlar, qayta ta`mirlash ishlari, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ishlari olib borilmoqda.² Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylilik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Shaxsni tarbiyalash pedagogdagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi.³ Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'limgan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzlusiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

XULOSA.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini samarali o'qitish uchun pedagoglarning malakasi doimiy ravishda oshirib borilishi lozim. Zamonaviy metodlarni o'zlashtirish, yangi texnologiyalar bilan ishslash va xorijiy tajribani

² www.norma.uz

³ nsportal.ru

o‘rganish orqali bolalarga yanada sifatli ta’lim berish mumkin. Pedagoglarning malakasini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv nafaqat bolalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning umumiyligi aqliy va muloqot qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining metodik tavsiyalari.
3. ©fayllar.org 2022
4. cyberleninka.ru
5. www.norma.uz
6. http://www.marifat.uz
7. zety.com
8. nsportal.ru